

## AVVALGI VA HOZIRGI ZAMON MEDIYA TURLARINI TAQQOSLASH

*Rajabova Hulkar A'zamovna*  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*  
*kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada OAV ning ilk ko'inishlari va rivojlanishi haqida, media turlarini taqqoslash haqida fikr, mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Media, senzura, Acta, milliy matbuot, internet.

Media turlariga Matbuotning hamma turlari, televideniye, radio va internet tizimi kiradi. Eramizdan oldingi 5- 6 asrlarda qadimgi Afinada siyosiy yig'ilishlarda aholining ham ishtirok etishiga ruxsat berilgan. Ularga "qani kim gapiradi" deya majlis boshida savol berilib, aholining shikoyat va takliflari ham inobatga olingan. Matbuotning ilk ko'inishi Yuliy Sezar davrida paydo bo'lgan. Bunga "Acta" gazetasini misol qilib olishimiz mumkin. Uning asosiy mazmun - mohiyati siyosiy yurishlar haqidagi xabarlardan iborat bo'lgan. 1447 yilda Germaniyada Guttenberg tomonidan yozma dastgohni yaratilishi axborot almashinuvini tezlashtirib yubordi. Turli sohaga oid har xil kitoblar nashr etila boshladi. 16- asrda Angliyada " Press Jondon" va shunga o'xshash gazetalar nashr etilgan. Angliyalik Jon Millton tomonidan 1664 yilda " Angliya parlamentiga matbuot to'g'risida ochiq xat" yuborilishi so'z erkinligi haqidagi murojat bo'ldi.

AQSH DA davlat tuzilmasidan oldi o'zini gazetolari nashr ettirilgan.

Rossiyada 18 - asrda Pyotr 1 davrida " Vedomosti" gazetasi nashr qilina boshlagan. O'rta Osiyoda esa ilk gazeta 1870 - yilda Kaufman tomonidan "Terkestanskaya vedomosti" gazetasi chorizmni manfatlari uchun nashr etila boshlaydi. So'ng gazetaga ilova tariqasida " Turkiston viloyatlari gazetasi" o'zbekcha va qirg'iz tilida nashr etilgan. 20- asr oxirida o'zbek matbuotida publisistlar ko'rini boshladi. Ular " Turkestanskaya vedomosti" gazetasida maqolalari bilan qatnashib tajriba orttiradi. XX asrning boshida ya'ni 1906 - yil 27- iyunda milliy gazetamiz "Taraqqiy" ning ilk soni ma'rifatparvar jadidchilar tomonidan nashr ettiriladi. Bu gazeta senzuraning kuchliligi sababli bor yo'g'i uch oygina nashr etilgan. G'arb matbuotidan milliy matbuotimizning farqi shundaki g'arbda matbuot asta-sekin rivojlangan bo'lsa, o'zbek milliy matbuotida ham matbaachilik, ham gazeta birdan paydo bo'lib, birdan rivojlana boshladi. Munnavarqori Abdurashidxonov " o'zini" Hurshid" gazetasini, Abdulla Avloniy esa " Shuhrat" gazetasini chiqara boshladi. 1913 yilda Mahmudxo'ja Behbudiy " Oyna " jurnalini nashr ettirdi va "Osiyo" gazetasi ham chiqarildi. 1917 - yil 7- Noyabrda Lenin sho'ro matbuotiga aloqasi bo'lmagan gazetalarning barchasi yopilsin deb, dekretga imzo chekadi. Orif Klebleev sho'ro

matbuotini ilk asoschi bo'lib " El bayrog'i" va Sovet O'zbekistoni Pravda vostoka gazetalari Nashri tezlashib ketdi. 1923-yilda O'zbek romanchiligining asoschisi Abdullo Qodiriy "Mushtum" jurnaliga asos soladi. Julqunboy taxallusida feletonlari bilan jurnalning har bir sahifasini boyitadi. Shunday qilib Sho'ro hukumati davrida matbuot turli-tuman janrlar bilan boyiydi. Shu bilan birga senzura ham kuchli bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach 2008-yilgi prezident qaroridan so'ng xususiy gazetarlar ham o'z faoliyatini boshlaydi. Bunga misol qilib " DARAKCHI" gazetasida ayta olamiz. 50 - yillarda televideniye va radioni kashf etilishi Axborot tarqatishni yangi usullarini ya'ni mediya olamini boyitdi.



90 yillarda internetni yaratilishi axborot almashishni rekord darajada tezladhtirib yubordi. Radio va televideniye, matbuotdan internet tezkorligi bilan o'zib ketdi. Biz hozir dunyoning u chekkasidan ham bir zumda axborot ololamiz. Axborot tarqatish va axborotni qabul qilish XXI asrda internet orqali tezlashi ketdi. Buni ham salbiy , ham ijobiy tomonlari mavjud. Ijobiy dan bir zumda xabardor bo'lsak, salbiy tomoni esa ba'zi e'tiqodsiz yoshlarning turli oqimlarga kirib ketishini misol qilib ayta olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Internet ma'lumotlari.
2. [www.xs.uz](http://www.xs.uz)
3. [Arxiv.uz](http://Arxiv.uz)